

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
ANATOMIYA VA KLINIK ANATOMIYA KAFEDRASI**



**KLINIK ANATOMIYA (OPERATIV JARROHLIK
VA TOPOGRAFIK ANATOMIYA)
FANINING ISHCHI O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 900 000 – Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
Ta'lim sohasi: 910 000 – Sog'liqni saqlash
Ta'lim yo'nalishlari: 60910300 – Pediatriya ishi

ANDIJON-2025

Fan/modul kodi “KA14-504 ”	O’quv yili 2025-2026	Semestr 6	Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O’zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 1/3	
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg’ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Klinik anatomiya (operativ jarrohlik va topografik anatomiya)	60	60	120
2	<p>I.Fanning mazmuni.</p> <p>Fanni o’qitishdan maqsad – umumiy analiyot shifokori, pediatriyani tayyorlash tizimida jarrohlik talablariga mos keladigan anatomik ma’lumotlarni ham normal, ham klinik vaziyatlar misolida bayon qilishdan iborat. Modulni o’rganishda asosiy diqqat e’tibor a’zo va tizimlarning individual hamda yoshga qarab o’zgaruvchanligi masalalariga, normal holatlari xususiyatlariga, patologik vaziyatlarda joylashishidagi, tuzilishidagi o’zgarishlarga qaratiladi.</p> <p>Fanning vazifalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - klinik anatomiya (operativ jarrohlik va topografik anatomiya) fanini o’qitishda ilg’or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda odam organizmini sohalar bo’yicha normal tuzilishini va ma’lum bir patologiyalarda yuzaga keladigan o’zgarishlarini klinik muammolar negizida aniqlashtirish, sog’lom turmush tarzini targ’ibot qilish. -talabalarda modulni o’qitish jarayonida klinik muammolarni taxlil qilish, asosan jarrohlik talablariga mos ravishda malakaviy ko’nikma va bilimlarini shakllantirish; -klinik anatomiya (operativ jarrohlik va topografik anatomiya) moduli masalalarini o’rganish jarayoniga talluqli strategiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq qilish. <p style="text-align: center;">II.Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg’ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">VI- semestr</p> <p>1 1-mavzu. Klinik anatomiya (operativ jarrohlik va topografik anatomiya) fan sifatida (tarixi, o’rganish usullari). Klinik anatomiya (operativ jarrohlik va topografik anatomiya) fani maqsad va vazifalari. Klinik anatomiya (Operativ jarrohlik va topografik anatomiya) fanini o’rganish usullari va tamoyillari. Operativ aralashuv haqida tushuncha. Operatsiya turlari. Qon ketishini to’xtatish usullari. Bolalarda va kattalarda qo’l va oyoq sohalarining klinik anatomiyasi.</p>			

Vegetativ nerv tizimining klinik anatomiyasi va 31 juft orqa miya nervlari. Qo'l va oyoq sohasining klinik anatomiyasi. Amputatsiya va ekzartikulyasiya. Fassiya va kletchatka bo'shliqlarining klinik anatomiyasi. Fassiya va kletchatkalarining yiringli yallig'lanish jarayoni tarqalishidagi ahamiyati. Turli lokalizatsiyadagi yiringli jarayonlarni ochish va drenajlash usullari. Amputatsiya va ekzartikulyasiyaga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar. Qo'l va oyoqlardagi amputatsiya va ekzartikulyasiya qoidalari va usullari. Periferik nervlar (31 juft va Vegetativ nerv sistemasi) klinik anatomiyasi va operativ jarrohligi. Periferik nervlar jarohatlari klinik anatomiyasi. Nervlarga ishlov berish. Nevroliz, nevrotomiya, nervlarni tikish. Miotenoplastika.

2 **2-mavzu. Bolalarda va kattalarda kalla sohasi miya qismi va yuz qismining klinik anatomiyasi. Bolalarda va kattalarda bo'yin sohasi klinik anatomiyasi va operativ jarrohligi.** Kalla sohasi. Kallaning miya sohasi klinik anatomiyasi va operativ jarrohligi. Kalla gumbazi va kalla asosi. 12 juft bosh miya nervlari va ularning kalla asosidan chiqish teshiklari. Bosh miya pardalari, sinus bo'shliqlari. Kronleyn-Bryusova sxemasi va SHipo uchburchagi. Trepanatsiya turlari va texnikasi. Bosh miyada bajariladigan operativ aralashuvlar negizi. Neyrojarrohlik haqida tushuncha. YUz soxasida bajariladigan operativ aralashuvlar tamoyillari. Kallaning yuz sohasi klinik anatomiyasi va operativ jarrohligi. YUz qismining chegaralari. Ko'z sohasi. Quloq sohasi. Burin sohasi. Og'iz bo'shlig'i va tilning klinik anatomiyasi. Quloq oldi bezining klinik anatomiyasi. Quloq oldi chaynov sohasi. YUz sohasida bajariladigan operativ aralashuvlar tamoyillari. YUz sohasida kesish usullari. Bolalarda va kattalarda bo'yinning klinik anatomiyasi: mushaklari, fassiyalari, uchburchaklari va a'zolari. Bo'yin sohasi klinik anatomiyasi va operativ jarrohligi. Bo'yin sohalari va uchburchaklari. Bo'yin fassiyalari va kletchatka bo'shliqlari. Bo'yindagi yiringli jarayonlar lokalizatsiyasi, ularni ochish va drenajlash usullari. Bo'yin a'zolari klinik anatomiyasi va ularda bajariladigan operativ aralashuvlar.

3 **3-mavzu. Bolalarda va kattalarda ko'krak qafasi devori, sut bezi, diafragma, plevra va o'pkalarning klinik anatomiyasi. Bolalarda va kattalarda oldingi va orqa ko'ks oralig'i a'zolarining klinik anatomiyasi.** Ko'krak devori, ko'krak bo'shlig'i va uning bo'limlari. Sut bezi. Diafragma va uning bo'limlari. Ko'krak bo'shlig'i. Plevra. O'pka segmentlari, bo'laklari, o'pka darvozasi va ildizi. Yiringli mastit va retromammar flegmonalarda kesishlar. Sut bezi raki va havfsiz o'smalarida operatsiyalar. Plevra punksiyasi. Perikard punksiyasi.

Oldingi ko'ks oralig'i. Ayrimon bez, yurak va perikard topografiyasi. Yurak bo'shliqlarini zondlash va ekstrakorporal qon aylanishi haqida tushuncha. Yurak va yirik tomirlar tug'ma va orttirilgan nuqsonlarida operatsiyalar. Perikarditlarda operatsiyalar. Qizilo'ngachning ko'krak bo'limiga ochib kirishlar. Bolalarda qizilo'ngach stenozlari, atreziyalari va traxeya-qizilo'ngach oqmalarida operatsiyalar.

- 4 **4-mavzu. Qorin old-yon devorining klinik anatomiyasi, bolalarda va kattalarda qorin bo'shlig'i yuqori, pastki qavat a'zolari va qorinparda orqa bo'shlig'i a'zolarining klinik anatomiyasi.** Qorin old-yon devorining sohalarga bo'linishi. Erkaklar va ayollarda chov sohasi. CHurralar. CHov, son, kindik va oq chiziq churralari. Kam uchraydigan churralar. Qorin devori tug'ma nuqsonlari. Laparoskopik gernioplastika. Qorin old-yon devorining bolalardagi xususiyatlari. Qorin bo'shlig'i yuqori qavat a'zolarining klinik anatomiyasi va operativ jarrohligi. Qorinparda burmalari, boylamlari va xaltalari. Gastrotomiya, gastrostomiya. Oshqozon rezeksiyasi, Jigar va o't yo'llarida operativ aralashuvlar. Jigar choki. Jigar rezeksiyasi. Splenektomiya. Oshqozon osti bezi xirurgiyasi. O'n ikki barmoq ichak, ingichka va yug'on ichaklarda bajariladigan operativ aralashuvlar qoidalari va texnikasi. Gastroentero-anastomozlar. Ichak choklari. Ichaklararo anastomozlar turlari. Appendektomiya.
- 5 **5-mavzu. Bel sohasi, qorinparda orti bo'shlig'i klinik anatomiyasi va operativ jarrohligi. Bel sohasi - qorinning orqa-yon devori.** Umurtqa pog'onasi, orqa miyaning individual va yoshga bog'liq tafovutlari va jarrohlik anatomiyasi. Buyraklar klinik anatomiyasi. Buyrak usti bezlari topografiyasi. Siydik yo'llari topografiyasi. Siydik yo'llari shaklining go'daklar va bolalardagi xususiyatlari. Aorta qorin bo'limi va uning shoxlari, pastki kovak vena, nerv chigallari va simpatik chegara poyasining topografiyasi. Qorinparda orti bo'shlig'ining limfa tugunlari guruhi. Ko'krak limfa yo'li, toq va yarim toq venalarning shakllanishi. Buyrak va siydik yo'llarida operatsiyalar, operativ ochib kirishlar, pielotomiya, buyrak rezeksiyasi, nefrektomiya. Buyrak va siydik yo'llarining tug'ma nuqsonlarida operatsiyalar. Paranebral novokainli blokada.
- 6 **6-mavzu. Ayollar va erkaklar chanoq a'zolarining klinik anatomiyasi. CHanoq sohasi. CHanoq bo'shlig'i klinik anatomiyasi.** Tashqi mo'ljallar, chegaralari. Kichik chanoq devorlari va tubi (chanoq diafragmasi va siydik-tanosil diafragmasi). CHanoq bo'shlig'i. Individual, jinsga va yoshga bog'liq tafovutlar. CHanoq qavatlar. CHanoq fassiyalari. To'g'ri ichak. Siydik pufagi. Erkaklarda prostata

bezi, urug' pufakchalari, urug' yo'llari va siydik chiqarish kanali topografiyasi. Siydik chiqarish kanalining ayollardagi topografiyasi. Bachadon va ortiqlari. Bachadon bo'limlari va ularning qorinpardaga munosabati. Oraliq, suyak-boylam-muskul chegaralari. Anal va siydik-tanosil uchburchaklari. Qin orqa gumbazi punksiyasi va kolpotomiya. CHanoq bo'shlig'i kletchatka bo'shliqlarini drenajlash usullari. Qovuqning turli (qorinparda bilan qoplangan va qoplanmagan) bo'limlari jarohatlarida operatsiyalar. Qovuq punksiyasi. Sistotomiya va sistostomiya. Kesarcha kesish.

JAMI:

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

VI- semestr

- 1 **1-mavzu.** Klinik anatomiya (operativ jarrohlik va topografik anatomiya) fan sifatida. Klinik anatomiya (operativ jarrohlik va topografik anatomiya) fani maqsad va vazifalari. **Bolalarda va kattalarda qo'lning klinik anatomiyasi va operativ jarrohligi.** Yelka kamari, yelka va yelka bo'g'imining klinik anatomiyasi.
- 2 **2-mavzu:** Tirsak sohasi, tirsak bo'g'imi, bilak va qo'l panjasi sohasining klinik anatomiyasi.
- 3 **3-mavzu. Bolalarda va kattalarda oyoq sohasi klinik anatomiyasi va operativ jarrohligi.** Dumba sohasi, son va chanoq-son bo'g'imining klinik anatomiyasi.
- 4 **4- mavzu.** Tizza bo'g'imi, taqim osti chuqurchasi, boldir va oyoq panjasning klinik anatomiyasi. Bolalarda va kattalarda qo'l va oyoq qon tomirlarini ochish va bog'lash. Amputatsiya va ekzartikulyatsiyalar.
- 5 **5-mavzu. Bolalarda va kattalarda bosh sohasi klinik anatomiyasi va operativ jarrohligi.** Bolalarda va kattalarda kalla sohasi miya qismining klinik anatomiyasi. 12 juft bosh miya nervlari. Bolalarda va kattalarda bosh miyaning klinik anatomiyasi, uning pardalari va sinuslari. Kronleyn-Bryusova sxemasi, SHipo uchburchagi.
- 6 **6-mavzu.** Bolalarda va kattalarda kalla sohasi yuz qismining klinik anatomiyasi. YUzning yon sathi: lunj va quloq oldi-chaynov sohalari. Bolalarda va kattalarda ko'z, quloq, burun va og'iz sohalarining klinik anatomiyasi. Kalla suyagi trepanatsiyasi: suyak plastik va rezeksiyali trepanatsiyalar. Kalla yuz qismida o'tkaziladigan kesmalar. Vegetativ nerv tizimi simpatik va parasimpatik qismining klinik anatomiyasi va

- asosiy operativ xirurgiyasi.
- 7 **7-mavzu. Bolalarda va kattalarda bo'yin sohasining klinik anatomiyasi va operativ jarrohligi.** Bolalarda va kattalarda bo'yin a'zolarining klinik anatomiyasi va bo'yin sohasida bajariladigan operatsiyalar.
 - 8 **8-mavzu. Bolalarda va kattalarda ko'krak devori, sut bezi, diafragma, plevra va o'pkalarning klinik anatomiyasi.** Bolalarda va kattalarda oldingi ko'ks oralig'i a'zolari: yurak va perikard, ayrisimon bez, diafragma nervlari, traxeya va bosh bronxlarning klinik anatomiyasi.
 - 9 **9- mavzu. Bolalarda va kattalarda ko'krak sohasining klinik anatomiyasi va operativ jarrohligi.** Ko'krak devori, sut bezi, diafragma, plevra va o'pkalarning klinik anatomiyasi. Bolalarda va kattalarda oldingi ko'ks oralig'i a'zolari: yurak va perikard, ayrisimon bez, diafragma nervlari, traxeya va bosh bronxlarning klinik anatomiyasi.
 - 10 **10-mavzu.** Bolalarda va kattalarda orqa ko'ks oralig'i a'zolarining klinik anatomiyasi. Ko'krak devori va sut bezida bajariladigan operatsiyalarning topografik anatomik asoslari.
 - 11 **11-mavzu. Bolalarda va kattalarda qorin old-yon devorining klinik anatomiyasi.** Tashqi va ichki churralarning klinik anatomiyasi. Qorin oq chizig'i, kindik halqasi va chov kanalining klinik anatomiyasi. Bolalarda va kattalarda qorin old-yon devorida o'tkaziladigan kesmalar klinik anatomik asoslari. CHurralar operativ jarrohligi.
 - 12 **12-mavzu. Bolalarda va kattalarda qorinparda bo'shlig'i klinik anatomiyasi va operativ jarrohligi.** Qorin parda hosilalari va klinik ahamiyati. Bolalarda va kattalarda qorinparda va qorin bo'shlig'i yuqori qavati a'zolarining klinik anatomiyasi, Qorinparda bo'shlig'i operativ jarrohligi. Laparoskopik jarrohlik. Qorinparda bo'shlig'ining yuqori qavati klinik anatomiyasi va operativ jarrohligi.
 - 13 **13-mavzu.** Bolalarda va kattalarda qorin bo'shlig'i pastki qavati a'zolarining klinik anatomiyasi. Bolalarda va kattalarda qorin bo'shlig'i pastki qavati a'zolarining operatsiyalarining klinik anatomik asoslari.
 - 14 **14-mavzu. Bolalarda va kattalarda bel va qorinparda orqa bo'shlig'i sohasining klinik anatomiyasi va operativ jarrohligi.** Qorinparda orti bo'shlig'i a'zolari klinik anatomiyasi. Qorinparda orqa bo'shlig'i a'zolarida bajariladigan operatsiyalarning klinik anatomik asoslari.
 - 15 **15-mavzu. Bolalarda va kattalarda tos sohasining klinik anatomiyasi va operativ jarrohligi.** CHanoq bo'shlig'i a'zolarining

klirik anatomiyasi. Ayollar chanog'i a'zolari va oralig'ining klinik anatomiyasi. Erkaklar chanog'i a'zolari va oralig'ining klinik anatomiyasi. CHanoq sohasida bajariladigan operatsiyalarining klinik anatomik asoslari.

JAMI:

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;
- o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati negizida talabalar bilimlarini chuqurlashtirish va qiziqish uyg'otish.
- talabada mustaqil tarzda o'z imkoniyatidan kelib chiqib natijaga erishish imkoniyatini ta'minlash tamoyili;
- talabani nazariy-uslubiy jihatdan tayyorlash tamoyili va h.k.

Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yhati:

1. Tashqi mo'ljallarni topish va paypaslash, tananing ayrim anatomik sohalari va qismlari chegaralarini tashqi mo'ljallar bo'yicha aniqlash, mo'ljal chiziqlarini o'tkazish;
2. Arteriya va nerv poyalarining aks-tasvir chiziqlarini, muhim ichki a'zolar va anatomik tuzilmalarning tana yuzasidagi tasvirlarini aniqlash;
3. Ichki a'zolarining joylashgan o'rni va o'zaro joylashuvi bo'yicha mo'ljal olish, yuzdagi kontrforslarni aniqlay olish;
4. CHakka-pastki jag' bo'g'imida chiqishlarda joyiga solish;
5. Regionar limfa tugunlarining o'rnini aniqlash;
6. Umumjarrohlik va ba'zi maxsus jarrohlik asboblardan to'g'ri foydalan olish, to'qimalarni ajratish va birlashtirish;
7. Tananing turli sohalaridagi jarohatlarga dastlabki jarrohlik ishlovi berish;
8. Yirik qon tomirlardan ketayotgan qonni to'xtatish, arteriyalarni ochish va bog'lash;
9. Ignatutqichga igna o'rnatib, ligatura ulab ko'rsatish;
10. Mulyajda qorin bo'shlig'iga punksiya qilish nuqtasini aniqlab ko'rsatish;
11. Mulyajda siydik pufagini punksiya qilish nuqtasini aniqlab ko'rsatish;
12. Mulyajda plevra bo'shlig'ini punksiya qilish nuqtasini aniqlab ko'rsatish;
13. Mulyajda perikardni punksiya qilish nuqtasini aniqlab ko'rsatish;
14. Mulyajda orqa miyani punksiya qilish nuqtasini aniqlab ko'rsatish;

15. Mulyajda o'mrov osti venasiga kateter qo'yib ko'rsatish;
16. Mulyajda tirsakning o'rta venasiga punksiya qilib ko'rsatish;
17. Mulyajda umumiy uyqu arteriyasini bosib, qon ketishini to'xtatish;
18. Mulyajda dumba sohasiga mushak orasi in'eksiyasini qilib ko'rsatish;
19. Mulyajda teri osti in'eksiyasini qilib ko'rsatish;
20. Klinik anatomiya (operativ jarrohlik va topografik anatomiya) faniga oid keyslar tuzish.

Izoh: Talabalar fanni o'qitish davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalarni bajarishda quyidagi internet saytdan foydalanishlarini tavsiya etamiz: lecturio GmbH. (xalqaro Germaniya websayti).

Talabalarga fanni o'qitish davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalarni bajarishda Osiyo taraqqiyot banki tomonidan berilgan mulyajlardan foydalanishlarini tavsiya etamiz.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

VI-semestr

№	Mustaqil ishlar mavzulari
1	Mahalliy va umumiy og'riqsizlantirish usullari. CHok va tugun turlari. Zamonaviy jarrohlik asboblari, uskunalari va moslamalar. Robotlashtirilgan xirurgiya amaliyoti. Suyaklar patologiyalarida bajariladigan operatsiyalar. Zamonaviy ortopediya yutuqlari.
2	Kalla suyagi defektlarining plastik operatsiyalari. YUzdagi plastik operatsiyalar haqida tushuncha. YUqori lab va tanglay tug'ma nuqsonlarida tiklovchi operatsiyalar. YUqori va pastki jag'lar rezeksiyasi. Burun yon bo'shliqlarining klinik anatomiyasi.
3	Bo'yinning o'rta, yon oqmalari va kistalarini kesib olish. Bo'yin absess va flegmonalarida kesish usullari. Ekstrakranial arteriyalardagi zamonaviy operatsiyalar. Bo'yin qiyshiqligida bajariladigan operatsiyalar.
4	YUrak tug'ma nuqsonlari. Yurak tug'ma nuqsonlarida bajariladigan operatsiyalar. Homilada qon aylanishi. Ochiq va yopiq pnevmotoraks. Plevra bo'shlig'ini punksiya qilish. Mastit va uning turlari.
5	CHurralar tasnifi va churra operatsiyalari. Qorin old-yon devorining rivojlanish anomaliyalari. Laparotomiya turlari.
6	Ichak choklari, ichaklararo anastomozlar. Jigar rezeksiyasi, jigar choklari. Me'da osti bezi operatsiyalari.
7	Bel sohasining klinik anatomiyasi. Buyrak operatsiyalari.

	<p>8 Tug'ma va orttirilgan buyraklar distopiyasi, taqasimon buyrak.</p> <p>9 Siydik yo'llari rivojlanish nuqsonlarining jarrohlik anatomiyasi. Siydik chiqarish kanali tug'ma nuqsonlari (epispadiya, gipospadiya).</p> <p>10 Orqa miya churrallarida operatsiyalar.</p> <p>11 Kriptorxizm, uning turlari, operatsiya usullari.</p> <p>12 To'g'ri ichakning rivojlanish nuqsonlari. To'g'ri ichak oqmalari.</p> <p>13 Duglas bo'shlig'ini punksiya qilish.</p> <p>14 Anal teshik va to'g'ri ichak atreziyalari.</p> <p>15 Ginekologiyada qo'llaniladigan og'riqsizlantirish usullari.</p>
<p>3</p>	<p>V. Ta'lim natijalari/kasbiy kompetensiyalar</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <p>-lotincha-ruscha-o'zbekcha anatomik va jarrohlik atamalarini, tashqi va ichki mo'ljallar, sohalarning chegaralari, qavatma-qavat tuzilishi, sohalarning qon bilan ta'minlanishi va innervatsiyasi, kollateral qon aylanish yo'llari, muayyan soha yoki a'zodan limfa oqishi, kletchatka bo'shliqlarining joylashuvi va ular bo'ylab yiringli jarayon va gematomalarning tarqalishi, operativ aralashuvlarga ko'rsatmalar, moneliklar va operatsiyadan keyingi asoratlarni, operativ ochib kirishlar va eng tarqalgan operatsiyalar texnikasini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi;</i></p> <p>-vegetativ nerv tizimining ahamiyati, shakllanishi, rivojlanishining asosiy qonuniyatlarining mohiyati, ularning tashqi muhit bilan munosabatini ta'minlayotgan tizimlar hamda ularning yoshga nisbatan o'zgarishini, talabalar odam organizmining sohalari, qavatma-qavat tuzilishi, individual, yoshga va jinsga bog'liq xususiyatlari, asosiy operativ aralashuvlar <i>haqida tasavvurga ega bo'lishi;</i></p> <p>-odam tanasidagi sohalarning tashqi mo'ljallarni topish va paypaslashni, mo'ljal chiziqlarini o'tkazishni, arteriya va nerv poyalarining aks-tasvir chiziqlarini, asosiy hayot-mamot qon-tomirlarini teridagi tasvirlarini aniqlashni, yuzdagi chiziqlarni aniqlay olishni, chakka-pastki jag' bo'g'imida chiqishlarda joyiga solishni, tananing turli sohalaridagi jarohatlarga dastlabki jarrohlik ishlovi berishni, yirik qon tomirlardan ketayotgan qonni to'xtatish, arteriyalarni ochish va bog'lashni;</p> <p>-mulyajda o'mrov osti venasiga kateter qo'yib ko'rsatishni, mulyajda tirsakning o'rta venasiga punksiya qilib ko'rsatishni, mulyajda umumiy uyqu arteriyasini bosib, qon ketishini to'xtatishni, mulyajda dumba sohasiga mushak orasi in'eksiyasini qilib ko'rsatishni, mulyajda teri osti in'eksiyasini qilib ko'rsatish kabi amaliy <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;</i></p>

-organizmning bir butunligini, organizmning o'sishi, shakllanishi, rivojlanishining asosiy qonuniyatlarining mohiyati, ularning tashqi muhit bilan munosabatini ta'minlayotgan tizimlar hamda ularning yoshga nisbatan o'zgarishini, klinik anatomiya moduli boshqa modullarni o'zlashtirishi uchun zamin yaratishi, barcha kasalliklarning asosida a'zolarning klinik-anatomik funksiyalarining buzilishi haqida, talabalar odam organizmining sohalari, qavatma-qavat tuzilishi, individual, yoshga va jinsga bog'liq xususiyatlari, asosiy operativ aralashuvlar *haqida tasavvurga ega bo'lishi*;

- zamonaviy jarrohlik asbob va uskunalari, tikuv va boshqa jarrohlik matolari, bemorning operatsiya stolidagi vaziyatlari, oliy ta'limda ko'llaniladigan ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalana olishni, fanni o'rganish jarayonida olgan ma'lumotlarni amaliyotda qo'llay olish yullarini *bilishi va ulardan foydalana olishi*;

-tashqi mo'ljalarni topish va paypaslash, tananing ayrim anatomik sohalari va qismlari chegaralirini tashqi mo'ljallar bo'yicha aniqlash, mo'ljal chiziqlarini o'tkazishni, arteriya va nerv poyalarining aks-tasvir chiziqlarini, muhim ichki a'zolar va anatomik tuzilmalarning tana yuzasidagi tasvirlarini aniqlashni, ichki a'zolarning joylashgan o'rni va o'zaro joylashuvi bo'yicha mo'ljal olish, regionar limfa tugunlarining o'rnini aniqlashni, umumjarrohlik va ba'zi maxsus jarrohlik asboblaridan to'g'ri foydalana olish, to'qimalarni ajratish va birlashtirishni, tananing turli sohalaridagi jarohatlarga dastlabki jarrohlik ishlovi berishni, yirik qon tomirlardan ketayotgan qonni to'xtatish, arteriyalarni ochish va bog'lashni, ignatutqichga igna o'rnatib, ligatura ulab ko'rsatishni, mulyajda qorni bo'shlig'iga punksiya qilish nuqtasini aniqlash, siydik pufagini punksiya qilish nuqtasini aniqlash, mulyajda plevra bo'shlig'ini punksiya qilish nuqtasini aniqlash, perikardni punksiya qilish nuqtasini ko'rsatish, klinik anatomiya moduliga oid keyslar tuzish, ularni amaliyotda qo'llash *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*;

-moduli yakunlanganda talaba jarrohlik asboblarini guruhlariga bo'linishini, to'qimalarni kesish va tikish usullarini, chok va tugun turlarini, a'zo va to'qimalarda o'tkaziladigan asosiy operatsiya usullarini, bemorda og'riqsizlantirish usullari, bemorning holati, operatsiyaga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalarni va operatsiyadan keyin kuzatiladigan asoratlarni oldini olish yo'llarini, hayotiy misollarda tuzilgan vaziyatli masalalarni to'g'ri echishni;

-ilmiy adabiyot bilan mustaqil ishlashni.

-hayot uchun muhim qon tomirlarni (umumiy uyqu arteriyasini, son arteriyasini, qo'l yuzaki venalari va boshqalar) mulyajda ko'rsatishni;

-hayot uchun muhim nervlarni soyasini mulyaj va skeletda (o'tirg'ich nervi, yuz nervi va boshqalar) o'tkazishni;

-hayot uchun muhim a'zolari mulyajda topish, skeletga nisbatan chegara va soyalarini muljallay bilish, teridagi (mulyajda) punksiya nuqtalarini topishni;
-operativ jarrohlik va topografik anatomiya moduliga doir masalalarni aniqlash, taxlil etish, baholash va umumlashtirish malakalarini egallaydi.

Kursni o'rganish davomida talabalarda quyidagi ko'nikmalar shakllantirilsin:

1. Kasalliklarni diagnostika qilish va davolash rejasini ishlab chiqish uchun tegishli ma'lumotlar bo'yicha talqin qilish, tahlil qilish, baholash va ustuvorlikni belgilash, shuningdek, ushbu bilimlarni differensial diagnostika vazifalarini hal etish uchun qo'llash;

2. Jarrohlik yondashuvi, samarali jarrohlik aralashuvi usuli va algoritmini tanlash uchun yosh va jinsiy farqlarni hisobga olgan holda topografik (mintaqaviy) anatomiya, shuningdek, jarrohlikning bazaviy fanlari va asoslari bo'yicha bilimlarni integratsiyalash;

3. Muayyan bemorni davolashda individual yondashuvni ta'minlash uchun bilim va ko'nikmalarni integratsiyalash ko'nikmalarini namoyish etish; tashxisning oqilonaligi va isbotlovchi tibbiyot prinsiplarini tahlil qilish asosida professional qarorlar qabul qilish;

4. Uzlüksiz kasbiy o'qishga hamda o'z bilimlari va kasbiy ko'nikmalarini takomillashtirishga qobiliyatni va ehtiyojni namoyish etish;

5. Simulyatsiya muhitida asosiy operatsion ko'nikmalarni o'zlashtirish. Eng keng tarqalgan jarrohlik patologiyalari bo'yicha asosiy operatsiyalarni bajarish metodikasini, eng keng tarqalgan patologiyalar bo'yicha endoskopik va laparoskopik aralashuvlarni bajarish metodikasini o'zlashtirish;

6. Ixtisoslashtirilgan jarrohlik ko'riklari va tekshiruvlarida asosiy ko'nikmalarni qo'llash.

Al-Farobiy nomidagi Qozog'iston milliy Universiteti Meditsina fakulteti Klinik anatomiya va operativ jarroxlik fanidan ishchi o'quv dasturidan olindi -2024y.

Umumiy kompetensiyalar:

UK₁. Abstrakt fikr yuritish, hodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;

UK₂. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;

UUK₃. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;

UK₄. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;

	<p style="text-align: center;">Umumiy kasbiy kompetensiyalar:</p> <p>UKK₁. Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;</p> <p>UKK₂. Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun ogʻzaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik koʻrish.</p> <p>UKK₃. Kasbiy va ijtimoiy faoliyatning har xil turlarida gumanitar, tabiiy, tibbiy-biologik va klinik modullarning uslublarini amaliyotda qoʻllash;</p> <p>UKK₄. Soʻrab-surishtirishni, fizikal koʻrikni, klinik tekshirishni, zamonaviy laborator-instrumental tekshirishlar, biopsiya, operatsiya va seksiya materiallarini morfologik tahlil qilishni olib borish va interpretatsiya qilish.</p> <p>UKK₅. Kasbiy faoliyatni takomillashtirish maqsadida nazariy va amaliy mahoratni qoʻllagan holda qarorlarni izlashga asoslangan daliliy tibbiyotning koʻp masalalarini oʻz ichiga olgan tamoyillarga tayanib tibbiy maʼlumotlarni tizimli tahlil qilishni shakllanishiga qobiliyat va tayyorgarlik;</p>
4	<p>VI. Taʼlim texnologiyalari va metodlari.</p> <ul style="list-style-type: none"> • maʼruzalar; • interfaol keys-stadilar; • tezkor savol-javoblar; • guruxlarda ishlash; • jamoa boʻlib ishlash; • taqdimotlar tayyorlash; • videoroliklar, prezentatsiyalar, mulyajlar, xoʻl preparatlar, 3D formatdagi interaktiv anatomik Pirogov stoli.
5	<p>VII. Talabalar kreditlarni toʻplash tartibi.</p> <p style="text-align: center;">Modul boʻyicha talabalar bilimni nazorat qilish turlari va baholash mezonlari</p> <p>Ushbu Nizom Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi qonuni, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 sentabrdagi 769-sonli “Tibbiyot kadrlarini tayyorlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi PQ-4310-sonli “Tibbiyot va farmasevtika taʼlimi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori, Oʻzbekiston Respublikasi sogʻliqni saqlash vazirligining 2020 yil 8 sentabrdagi 236 sonli buyrugʻi bilan tasdiqlangan “Tibbiyot va farmasevtika oliy va oʻrta maxsus taʼlim muassasalarida kredit-modul oʻqitish tizimini joriy etish toʻgʻrisidagi Nizom”lari asosida ishlab chiqilgan hamda 2025-2026 oʻquv yilida institutda oʻquv jarayonini modulli taʼlim tizimida tashkil etish, bakalavriat va magistratura mutaxassisliklari 1-2-3-4-5-6 kurslarida taʼlim oluvchilari bilimni nazorat qilish va baholash tartibini belgilaydi.</p>

Klinik anatomiya (operativ jarrohlik va topografik anatomiya) fani bo'yicha nazorat turlari va baholash mezonlari haqidagi ma'lumotni fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi. Talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- Joriy nazorat (JN); VI-semestr –4 kredit

-Oraliq nazorat (ON)

-Yakuniy nazorat (YAN)

Klinik anatomiya (OXTA) fani bo'yicha talabaning semestr (o'quv yili) davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi va baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

№	Baholash turi	Maksimal ball	Kredit soni
1	Auditoriyadagi o'quv mashg'ulotlarni baholash (JN)	100	4
2	Oraliq nazorat (ON)	100	0
3	Yakuniy nazorat (YAN)	100	0
	JAMI:	100	4

Fanga ajratilgan 4 kreditni talaba JN davomida yig'adi.

JORIY NAZORAT (JN)

Klinik anatomiya (operativ jarrohlik va topografik anatomiya) fani bo'yicha JNda talabaning modul mavzulari bo'yicha bilimi, amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalarni egallaganlik darajasini aniqlash va baholash usuli hisoblanadi. Joriy nazorat talabalar tomonidan modul mavzusi mazmunini o'zlashtirganlik darajasini baholashga qaratiladi, shuningdek, o'quv materialini konstruktiv ravishda sharhlash va tahlil qilish, modulga oid ko'nikmalarini rivojlantirish, amaliy ko'nikmalar (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallash, kasbiy amaliy ko'nikmalarni qo'llashga yo'naltirilgan muammoli vaziyatlarni hal etish (keys-stadi), jamoada ishlash, prezentatsiyalar tayyorlash va h. k. ni baholashga qaratiladi. Klinik anatomiya (OXTA) fani bo'yicha JN og'zaki, o'rgatuvchi-nazorat testlari, tarqatma materiallari bilan ishlash, vaziyatli masalalar, mulyaj va fantomlarda ishlash ma'lumotlarini o'rganish, uyga berilgan vazifalarni tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkaziladi. Talabalar fan bo'yicha 100 ballik tizimda baholanadi. **Joriy nazorat uchun 4 kredit ajratiladi.**

Har bir mashg'ulotda barcha talabalar baholanishi shart. **Maksimal ball 100, o'tish bali 55 ball.** O'qituvchi tomonidan shu kuni o'zida talabaning

bahosi HEMIS ta'lim platformasiga qo'yiladi. Talaba belgilangan kreditlarni to'plagandan keyin semestr yakunida o'tish (saralash) balidan o'tsagina YAN ga kiritiladi. Joriy nazoratda saralash (o'tish) ballidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha va so'nggi joriy nazorat uchun bo'lgan muddatgacha beriladi.

Joriy va yakuniy nazoratlarni baholashda hamda mos ravishda modulni o'zlashtirish reyting ko'rsatkichini aniqlashda ta'lim oluvchining nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari va kompetensiyalari quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

a) "5" (a'lo), A, reyting bo'yicha 86 — 100 ball olish uchun ta'lim oluvchi:

- modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;

-terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;

-muammoli savollarni aniqlashi, o'z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bera olishi;

-modulning tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni yechishda samarali qo'llay olishi;

-nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qobiliyatini ko'rsata olishi;

-amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;

-amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va ratsional ravishda hal etishi;

-modul dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni to'liq va chuqur o'zlashtirishi;

-o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish va boshqa modullar ilmiy yutuqlarini qo'llay olishi;

-seminar, nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;

b) "4" (juda yaxshi), V, reyting bo'yicha 81-85 ball olish uchun ta'lim oluvchi:

-modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;

-terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida

foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to‘g‘ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;

-o‘z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;

-modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo‘yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;

-standart vaziyatlarda muammolarni o‘quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;

-amaliy ko‘nikmalarni mustaqil ravishda to‘liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to‘liq egallashi;

-amaliy mashg‘ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to‘g‘ri (lekin doim ham ratsional emas) qo‘llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;

-modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o‘zlashtirishi;

-o‘rganilayotgan modul bo‘yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo‘nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;

-seminar, nazariy, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo‘lishi, vazifalarni bajarishda juda yaxshi madaniyat darajasiga ega bo‘lishi lozim;

v) “4” (yaxshi), S, reyting bo‘yicha 71 — 80 ball olish uchun ta’lim oluvchi:

-modul dasturining barcha bo‘limlari bo‘yicha tizimli, to‘la va chuqur bilimga ega bo‘lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;

-terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o‘z o‘rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to‘g‘ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;

-o‘z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;

-modulning tayanch tushunchalarini bilishxi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo‘yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;

-standart vaziyatlarda muammolarni o‘quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;

-amaliy ko‘nikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallashi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;

-amaliy mashg‘ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to‘g‘ri (lekin doim ham ratsional emas) qo‘llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;

-modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o‘zlashtirishi;

-o‘rganilayotgan modul bo‘yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo‘nalishlar

mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;

-seminar, nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yaxshi darajaga ega bo'lishi lozim;

g) "3" (qoniqarli), D, reyting bo'yicha 60 — 70 ball olish uchun ta'lim oluvchi:

-davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida yetarli bilim hajmiga ega bo'lishi;

-terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim xatolarga yo'l qo'yishi;

-javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;

-amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil ammo hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;

-kompetensiyalarni mustaqil, ammo hatoliklar bilan egallashi;

-modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;

-pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;

-o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;

-seminar, nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;

d) "3" (o'rta), Ye, reyting bo'yicha 55 — 59 ball olish uchun ta'lim oluvchi:

-davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida qoniqarli bilim hajmiga ega bo'lishi;

-terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim qo'pol xatolarga yo'l qo'yishi;

-javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda va hatolarga yo'l qo'yganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;

-amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil emas va hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;

-kompetensiyalarni mustaqil emas va hatoliklar bilan egallashi;

-modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;

-pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;

-o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;

-seminar, nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida pedagog xodim

rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;

e) ta'lim oluvchining bilim darajasi "2" (qoniqarsiz), FX, reyting bo'yicha 31 — 54 balldan past deb baholanadi, agar:

-davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa;

-ilmiy terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa;

-seminar, nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa;

-amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.

j) ta'lim oluvchining bilim darajasi "2" (mutloq qoniqarsiz), F, reyting bo'yicha 0-30 balldan past deb baholanadi, agar:

-davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa;

-terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va qo'pol mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa yoki umuman javob bermasa;

-seminar, nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa yoki umuman bajarmasa;

-amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.

Modullar bo'yicha ta'lim oluvchi reytingi quyidagicha aniqlanadi:

Ball	ECTS baho	ECTS ning ta'rifi	Baho	Ta'rifi
86-100	A	a'lo" – a'lo natija, minimal hatoliklar bilan	5	a'lo
81-85	B	"juda yaxshi" – o'rtadan yuqori natija, ayrim hatoliklar bilan	4	yaxshi
71-80	C	"yaxshi" – o'rtacha natija, sezilarli hatoliklar bilan		
60-70	D	"qoniqarli" – sust natija, qo'pol kamchiliklar bilan	3	qoniqarli
55-59	E	"o'rta" – minimal natijaga teng		
31-54	FX	"qoniqarsiz" – minimal darajadagi bilimlarni olish uchun qo'shimcha mustaqil	2	qoniqarsiz

		o'zlashtirishi zarur		
0-30	F	"mutloq qoniqarsiz" – to'liq qayta o'zlashtirishi lozim		

ORALIQ NAZORAT (ON)

Oraliq nazorat talaba tomonidan modul dasturining tegishli bo'limlari mazmunini o'zlashtirish darajasi, adabiyotlardan foydalanishi, kasbiy amaliy ko'nikmalarni qo'llashga qaratilgan muammoli vaziyatlarni hal etish (keys-stadi), tizimli tahlil, mantiqiy fikrlash, mustaqil tadqiqot olib borish, amaliy ko'nikmani (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallaganligini, o'z fikrlarini izchil va aniq bayon qilish qobiliyatini baholashga qaratilgan. JNga ajratilgan kreditlarni to'liq to'plagan talaba ONga kiritiladi. ON semestr yakunida OSE (og'zaki) va yozma shaklida o'tkaziladi, bunda ON topshirish jarayonida talabalarning kompetensiyalarini, nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini (uquvlari) egallash darajasi tekshiriladi. ONda saralash balini (55) yig'olmagan talaba, YaN ga qo'yilmaydi. Talaba uzrli sabablarga ko'ra oraliq nazorat turiga kirmagan taqdirda ushbu talaba tegishli nazorat turini qayta topshirishga fakultet dekanining farmoyishi asosida ruhsat beriladi.

YaKUNIY NAZORAT (YaN)

Yakuniy nazorat klinik anatomiya (OXTA) moduli bo'yicha talabalar tomonidan nazariy bilimlarini o'zlashtirish, amaliy ko'nikmalar (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallaganlik darajasini baholash usuli hisoblanadi va semestr yoki modul yakunida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat talabaning modul dasturi mazmunini o'zlashtirganlik darajasi, uning mantiqiy fikrlashi, modulga oid bilimlarni nazariy va amaliy jihatlarini o'zlashtirish, amaliy ko'nikmalarni to'liq egallash, kasbiy amaliy ko'nikmalarni qo'llashga qaratilgan muammoli vaziyatlarni (keys-stadi) hal etish, tizimli, tanqidiy tahlil qila olishi, dalillarga asoslangan tibbiyotni qo'llashda o'z fikrlarini izchil va aniq bayon qilish qobiliyatlarini baholashga qaratilgan.

JNga ajratilgan kreditlarini to'liq to'plagan talaba yakuniy nazoratga (YaN) qo'yiladi. Talaba YAN nazoratga qadar TMI bo'yicha bajargan ishini PDF (elektron) hamda qog'oz variantini o'qituvchisiga topshiradi. YAN fan yakunida kafedrada og'zaki so'rov (80%) va institut test markazida test (20%) shaklida o'tkaziladi. Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turida (JN, YaN) belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng. Klinik anatomiya (OXTA) fani bo'yicha JN-100 ballik. Joriy nazorat kafedrada joriy baholashdan olingan ball. Bunda Joriy nazorat uchun o'zlashtirish ko'rsatkichi o'rtacha arefmetik qiymatda olinadi.

Masalan: 15 haftalik, 15 ta joriy baho qo‘shiladi va natija 15 ga bo‘linadi. Yakuniy nazorat turini o‘tkazish og‘zaki so‘rov (OTKI) va test shaklida o‘tkaziladi. Yakuniy nazoratda 100 ballik tizimda test uchun 20%, kafedra uchun (OTKI) 80% hisoblanadi.

Misol: Fan bo‘yicha umumiy baho quyidagicha aniqlanadi.

JN: 71 baho, ON: 86 baho,

YaN: 75 baho: Test 83 baho (x 0.2) + kafedra 73 baho (x 0.8) = test 16.6+ kafedra58.4=75baho.

Umumiy baho = (JN+ON+YAN)/3= (71+86+75)/3=77.

6 VIII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari:

Asosiy adabiyotlar:

1. N.X.SHomirzaev, SH.M.Axmedov, I.J.Gulmanov. "Klinik anatomiya", I-II tom. Darslik. Toshkent. "Toshkent tibbiyot akademiyasi". 2020 y.
2. SH.M.Axmedov, M.YU.Akramova, Q.A.Dehqonov. "Ko'krak, chanoq, bo'yin va kalla sohalari klinik anatomiyasi". O'quv qo'llanma. Toshkent. "Odil Print". 2018 y.
3. Г.Е.Островерхов, Д.Н.Лубоцкий, Ю.М.Бомаш. "Оперативная хирургия и топографическая анатомия", Учебник. Москва. "Медицинское информационное агентство". 2005 г.
4. A.J. Xamraev, SH.M. Axmedov. "Bolalar operativ xirurgiyasi". Darslik. Toshkent. "Vorish-nashriyot". 2012 y.
5. N.H. Shamirzaev, S.H. Nazarov, R.D. Usmanov. "Topografik anatomiya". Darslik. Toshkent. "Akademiya", 2005 y.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. I.I. Sattibaev, I.V. Gayvoronskiy. «Odam normal anatomiyasi» I-II jild. Darslik. Tarjima. Nashriyot «Spetslit» 2024 y.
2. Z.A. Kaxarov, I.I. Sattibaev, D.Ya. Hojiyev «Anatomiya». Darslik. Nashriyot «INNO -SENER» 2024 y.
3. K.A. Agzamov. "Topografik anatomiyadan amaliy qo'llanma". O'quv qo'llanma. Samarqand. "Zarafshon". 2009 y.
4. N.X. SHomirzaev, N.S. Sa'dullaev, Z.B. Botirova. "Operativ jarrohlik", O'quv qo'llanma. Toshkent. "Ibn Sino". 1994 y.
5. John T. Hansen. "Netter's clinical anatomy". New York, 2014 y.
6. Conor Delaney. Netter's "Surgical Anatomy and Approaches", Saunders; 1 Har/Psc edition. 2013 y.
7. Clinical anatomy by regions / Richard S. Snell. – 9th ed. Publisher: Lippincott Williams & Wilkins; Ninth, North American Edition. 2011.
8. Keith L., Anne M.R., Arthur F. "Clinical Anatomy", Lippincott Williams & Wilkins; American Edition. 2010 y.
9. Agur, Anne M.R. Dalley, Arthur F., "Grant's Atlas of Anatomy". American Edition. Lippincott Williams & Wilkins. 2009 y.
10. Sattibaev I.I., Kaxarov Z.A. «Bosh va bo'yin anatomiyasi» O'quv qo'llanma Toshkent 2021y.
11. Г.Ж. Улугбекова "Операции на желудке и кишечника". Учеб.пособ. – Ташкент 2021г.
12. P.L. Ubaydullov "Клиническая анатомия области головы". Учеб.пособ. –Ташкент. 2021г.

13. D.Y. Tulyanova «Ko'krak sohasi klinik anatomiyasi va operativ jarroxligi». O'quv qo'llanma». Toshkent 2023y.
14. Kaxarov Z.A. Human anatomy. Part-2. O'quv qo'llanma Toshkent 2023y.
- 15.D.Y. Tulyanova «Qorin sohasi klinik anatomiyasi va operativ jarroxligi». O'quv qo'llanma». Toshkent 2024y.
16. G.J.Ulug'bekova «Bel va qorinparda orti sohasi klinik anatomiyasi va operativ jarroxligi». O'quv qo'llanma». Toshkent 2024y.
- 17. Al-Farobiy nomidagi Qozog'iston milliy Universiteti Meditsina fakulteti Klinik anatomiya fanidan ishchi o'quv dasturi -2024y.**

Internet saytlari:

1. <http://www.ziyonet.uz>
2. <http://www.edu.uz>
3. <http://www.pedagog.uz>
4. www.tma.uz
5. www.lex.uz
6. https://meduniver.com/Medical/travmi/operativnie_dostupi.html
7. <https://studfiles.net/>
8. <https://accesssurgery.mhmedical.com>
9. <https://learning.facs.org>
10. <https://www.touchesurgery.com>
11. <http://or-live.com>
12. <https://www.wolterskluwer.com/en/solutions/ovid/surgical-anatomy-for-mastery-of-open-operations>
13. <https://www.wolterskluwer.com/en/solutions/ovid/operative-anatomy-5378>
14. <https://www.gutenberg.org/ebooks/24440>
15. <https://www.eu.elsevierhealth.com/netters-surgical-anatomy-and-approaches-9780323673464.html>
16. <https://hirurgiya.vrachirf.ru/>
17. <https://www.twirpx.com/files/science/medicine/surgery/operative/>
18. <http://www.booksmed.com/hirurgiya>.
19. <https://courses.uow.edu.au/subjects/2024/MEDI112>
- 20.** <https://catalogue.leeds.ac.uk/Module/UG/BMSC/1100T/202425>
21. <https://catalogue.leeds.ac.uk/Module/UG/BMSC/1100T/202425>
- 22.lecturio GmbH. (xalqaro Germaniya sayti)**
- 23.www.kaznu.kz.**

7	Andijon davlat tibbiyot instituti Anatomiya va klinik anatomiya tomonidan ishlab chiqilgan va OTM kengashining 2025 yil " 27 " avgustdagi 1 - son qarori bilan tasdiqlangan.
----------	--

8	<p>Fan/modul uchun mas`ullar:</p> <p>Z.A.Kaxarov ADTI, Anatomiya va klinik anatomiyasi kafedrası mudiri, t.f.d., professor</p> <p>D.YA.Tulyanova ADTI, Anatomiya va klinik anatomiyasi kafedrası katta o`qituvchisi</p>
9	<p>Taqrizchilar:</p> <p>Sh.T. Bozorov ADTI, Bolalar jarrohligi kafedrası dotsenti</p> <p>A.R. Mamataliyev ADTI, Patologik anatomiya va sud tibbiyoti kafedrası dotsenti</p>